

AUTIZM SPEKTRI BUZILGAN BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRUVCHI KORREKSION-LOGOPEDIK ISH NATIJALARI

Alimova Pokizaxon Qayumjon qizi,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Logopediya" yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: O.Y.Bozorov,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsent v.b., p.f.f.d (PhD),

Annotatsiya. Ushbu maqolada autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiruvchi korreksion-logopedik ish eksperimenti va undan keyingi natijalar haqida ma'lumot beradi. Tadqiqot jarayonida autizm spektri buzilgan bolalar bilan olib borilgan korreksion-logopedik ishlar individual yondashuv asosida tashkil etilib, kommunikativ faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratildi. Eksperiment davomida verbal va noverbal muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va maxsus metodikalarning integratsiyalashgan qo'llanilishi samaradorligi aniqlandi. Olingan natijalar bolalarda ijtimoiy muloqotga kirishish faolligi ortganini, emotsional ifodalar va muloqotga javob berish tezligida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Shuningdek, tadqiqot natijalari autizm spektri buzilgan bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuv va individual korreksion dasturlarni qo'llashning muhimligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: autizm spektri buzilishi, kommunikatsiya, verbal, noverbal, ijtimoiylashuv, xulq-atvor, sharhlash, axborot berish, hissiy holat.

Аннотация. В данной статье представлена информация об эксперименте по коррекционно-логопедической работе, развивающем коммуникативные навыки у детей с расстройствами аутистического спектра, и последующих результатах. В данной статье представлена информация об эксперименте по коррекционной логопедической работе по развитию коммуникативных навыков у детей с расстройствами аутистического спектра и его результатах. В ходе исследования коррекционная логопедическая работа с детьми с расстройствами аутистического спектра была организована на основе индивидуального подхода и направлена на постепенное развитие коммуникативной активности. В ходе эксперимента была определена эффективность комплексного использования современных педагогических технологий и специальных методов в формировании вербальных и невербальных коммуникативных навыков. Полученные результаты показали, что дети стали более активны в социальном общении, а также наблюдались положительные изменения в скорости выражения эмоций и реакции на общение. Результаты исследования также подтвердили важность использования комплексного подхода и индивидуальных коррекционных программ в работе с детьми с расстройствами аутистического спектра.

Ключевые слова: расстройство аутистического спектра, коммуникация, вербальное, невербальное, социализация, поведение, интерпретация, информирование, эмоциональное состояние.

Abstract. This article provides information about the experiment of corrective speech therapy work on developing communicative skills in children with autism spectrum disorders and its subsequent results. During the research, corrective speech therapy work with children with autism spectrum disorders was organized on the basis of an individual approach and was aimed at the gradual development of communicative activity. During the experiment, the effectiveness of the integrated use of modern pedagogical technologies and special methods in the formation of verbal and nonverbal communication skills was determined. The results obtained showed that children were more active in social communication, and there were positive changes in the speed of emotional expressions and responses to

communication. The results of the study also confirmed the importance of using an integrated approach and individual correction programs in working with children with autism spectrum disorders.

Keywords: autism spectrum disorder, communication, verbal, non-verbal, socialization, behavior, interpretation, informing, emotional state.

Kirish. Autizm spektri buzilgan bolalar uzoq muddatli maxsus ko‘makka muhtoj bo‘ladilar. Bunda bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo‘yicha tadbirlar dasturini amalga oshirishga qaratilgan kompleks korreksion modelni ishlab chiqish dolzarb muammoga aylanganligini aytib o‘tish joiz.

Kompleks reabilitatsiya hozirgi bosqichda maxsus ta‘lim tizimidagi integratsiyalashgan konsepsiyasiga asoslanadi. U fanlararo xarakterga ega bo‘lib hozirgi kunda tibbiyot, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlarning, shuningdek jamiyatning huquqiy ko‘magiga asoslanuvchi har tomonlama barqaror integratsion yondashuvni talab etadi. Aynan shu bois autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllanishi bo‘yicha zarur shart-sharoitlar yaratib berish uchun verbal va noverbal jarayonlarini rejali tarzda korreksiyalash, tibbiy va psixologik-pedagogik yo‘nalishdagi mutaxassislar bilan jadal ishlar olib boriladi.

Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayoni autizimli bolalar bolalarda individual qobiliyatlarning namoyon bo‘lishiga, atrofdagi olam haqida to‘laqonli tasavvurlarning shakllanishiga, o‘zining shaxs ekanligi, muloqotga kirishish va ta‘lim olishning asosiy vositasi sifatida nutqni egallanishiga yo‘naltiriladi. Autizm spektri buzilgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion – pedagogik ish mazmunining asosini ijtimoiy muloqot va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish hamda xulq-atvor va faoliyatni tartibga solish tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta‘limiy eksperimentning nazariy asosini L.S.Vigotskiyning[4] tafakkur va nutq birligi haqidagi qoidalari va D.B.Elkonin[6] tomonidan yaratilgan muloqotning bola psixik rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishi haqidagi konsepsiyasi tashkil etadi.

P.Menyuk[2] o‘z izlanishlarida autizimli bolalarda og‘ir holatlarda umuman nutq shakllanmaydi, ammo hatto shunda ham muqobil muloqot vositalaridan foydalana olishlari mumkin (yozuv, imo-ishoralar, maxsus ishlab chiqilgan piktogrammalar va kartochkalar) degan to‘g‘ri xulosaga keladi. Bundan tashqari muallif nutqni tushunish ko‘p jihatdan ko‘chma ma‘no, tagma‘no, metaforalarni tushunishdagi qiyinchiliklarga ham bog‘liq deb qayd etgan.

R.P.Hobson[1] autizm spektri buzilgan bolalarda noverbal muloqotni rivojlanishida ham buzilishlar yuzaga kelishi haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. Bunga yaqqol misol tariqasida bola suhbatdoshiga qaramasligi, imo-ishoralardan kam foydalanishi yoki umuman foydalanmasligi, boshqalarning imo-ishoralari va yuz ifodalarini tushunishda qiynalishi kabilarni ajatib ko‘rsatgan. Autizimli bolaning suhbatdoshiga haddan tashqari diqqat bilan va uzoq vaqt tikilib turishi yoki vizual aloqadan o‘zini olib qochishi bo‘lishi

mumkin. Imo-ishoralardan foydalanish, ijtimoiy ko'nikmalarni (ko'z bilan aloqa qilish, maqtovgga munosabat bildirish) yo'qotish regressiya holatlari sifatida kuzatilishi mumkin. Ba'zan regressiya bolaning allaqachon mavjud bo'lgan, autizm spektri buzilishlariga xos xususiyatlariga qo'shib chuqurlashib boradi. Autizm regressiyasi asosida yotuvchi mexanizm hozircha noma'lum.

Y.R.Bayanskaya[3], O.S.Nikolskaya[5] va boshqalar ishlarida autizm spektri buzilishlariga ega bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga to'sqinlik qiluvchi asosiy buzilishlardan biri ekspressiv nutq buzilishlari, kommunikativ faoliyatdagi muammolar, maqsadli va motivatsiyali muloqotning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tgan.

Tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik va maxsus adabiyotlar tahlili hamda o'tkazilgan ta'kidlovchi eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, Autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarining shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Bu esa autizm spektri buzilgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik korreksion texnologiyalarni yaratish zarurati haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Metodologiya. Autizm spektri buzilgan bolalar kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi logopedik ish tizimining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Tajriba jarayoni Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani "Hope kids" va "Anor klub" xususiy bolalar markazida 20 nafar autizm spektri buzilgan bolalar jalb qilindi. Ta'limiy tajriba-sinov dasturi 5 oyga mo'ljallangan. Bolalarning yoshi, sensor sohasining joriy holati va rivojlanish ko'rsatkichlari ham hisobga olindi. Ta'limiy tadqiqot ishlari 2025-yilning sentabr oyidan boshlanib, joriy yilning yanvar oyigacha davom etdi.

Biz o'z tadqiqot ishimizni bajarish vaqtida adabiyotlarni o'rganib autizm spektri buzilgan bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha metodikalar va texnologiyalarni tahlil qildik. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan holda usullar saralab olindi. Saralab olingan usullarning samaradorligi ta'limiy eksperiment davomida sinovdan o'tkazildi.

Biz quyida o'quv dasturini keltirib o'tamiz. Ishlab chiqilgan dasturni amalga oshirish to'rt bosqichda amalga oshirildi.

I bosqich. Noverbal muloqot vositalarini shakllantirish.

Bu bosqich quyidagi ishlarni amalga oshirilishini talab etadi:

1. Ko'z bilan aloqa o'rnatish.
2. Imo-ishoralarni o'rgatish: Ko'rsatkich barmog'i bilan ko'rsatish, "ha" (bosh silkish) va "yo'q" (boshni ikki tomonga burish) ishoralarini shakllantirish.
3. Ismiga reaksiya bildirishni mashq qilish.

II bosqich. Verbal ko'nikmlarni rivojlantirish..

Bu bosqich quyidagi ishlarni amalga oshirilishini talab etadi:

1. Hodisa va predmetlar va ularning xususiyatlari haqida izoh berish.
2. "Bu nima?", "nima qilyapti", "qayerda?" kabi savollarga javob berish.

3. Muloqotni boshlash, davom etish, qo'llab-quvvatlash va uni tugatish ko'nikmalarini rivojlantirish.

III bosqich. Adekvat ijtimoiy javob reaksiyasiyani rivojlantirish....

Bu bosqich quyidagi ishlarni amalga oshirilishini talab etadi:

1. So'rov (iltimos) ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. So'rovga rozilik bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish
3. Rad etish va taklif etilgan obyekt yoki faoliyatdan voz kechish.

IV bosqich. Hissiyotlarni ifodalash va aniqlash ko'nikmasini rivojlantirish...

1. Hissiyotlarni tanish ko'nikmasini rivojlantirish;
2. Hissiyotlarni faqlash ko'nikmasini rivojlantirish;
3. Boshqalar bildirayotgan fikrga hissiy izoh berishni rivojlantirish.

Natijalar. Verbal ko'nikmalar (muloqotni boshlashi, davom ettirishi va muloqotga kirishish) ni shakllanganlik eksperimental ta'limdan keyingi tekshirish natijalari ko'rsatkichlarda ijobiy siljish kuzatilib, 1 ball 70% ga kamaydi, 2 ball 30% ga oshdi, ammo 3 ball hali ham qayd etilmadi. Bu muloqotni mustaqil boshlash ko'nikmasi asta-sekin shakllanayotganini ko'rsatdi. PRT va Floortime metodlari yordamida bola o'zi mustaqil tashabbus ko'rsatishga o'rgandi.

Savolga javob berish mezonida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Dastlab 65% bolalar past darajada bo'lgan bo'lsa, eksperimentdan so'ng bu ko'rsatkich 45% ga tushdi. Shu bilan birga, o'rta darajadagi bolalar ulushi 30% dan 35% ga, yuqori darajadagi bolalar esa 5% dan 20% ga oshdi. Bu natijalar bolalarning nutqiy faolligi va tushunib javob berish qobiliyati rivojlanganini ko'rsatdi. Social Stories va Role play metodlari bolalarda real vaziyatlarni suniy holatda mustahkamlashga yordam berdi.



Istakni ifodalash mezoni bo'yicha esa ta'limiy eksperimentdan oldin va keyin ko'rsatkichlar deyarli o'zgarmadi. Bu esa mazkur ko'nikma bo'yicha qo'llangan metodlar yetarli darajada samarali bo'lmaganini yoki qo'shimcha mashg'ulotlar zarurligini bildirdi. Ammo PECS kartochkalari bolalar gapirmasa ham ular bilan aloqani boshlash imkonini berdi. Muloqotni davom ettirish mezonida ham ijobiy dinamika kuzatildi. Dastlab 95% bolalar past darajada bo'lgan bo'lsa, eksperimentdan keyin bu ko'rsatkich 90% ga kamaydi, o'rta daraja esa 5% dan 10% ga oshdi. Yuqori daraja esa har ikkala bosqichda ham kuzatilmadi. FCT metodi yordamida faqatgina "xohlayman", "ber" kabi funksional murojaatni shakllantirishga erishildi. Bu natija muloqotni uzluksiz davom ettirish hali murakkab ko'nikma ekanini ko'rsatdi.

Noverbal ko'nikmalar (bola ismiga murojaat qilinganida noverbal reaksiya holati)ni shakllanganlik darajasini eksperimental ta'limdan keyingi tekshirish natijalari shuni ko'rsatdiki ko'z bilan aloqa mezonida past daraja o'zgarishsiz 40% bo'lib qolgan, o'rta daraja 45% dan 40% ga kamaygan, yuqori daraja esa 15% dan 20% ga oshdi. Bu esa ayrim bolalarda ko'z bilan aloqa qilish ko'nikmasi yaxshilanganini ko'rsatdi. Aynan ABA dasturi elementlari ko'z qarashini aniq shakllantirdi. Floortime metodi ko'z qarashini majbur

emas, tabiiy holata keltirishga yordam berdi. Tana bilan burilish mezonini bo'yicha natijalar barqaror qoldi: TA va TK bosqichlarida mos ravishda 30%, 50% va 20% ko'rsatkichlar qayd etildi. Bu holat mazkur ko'nikma bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilmaganini bildirdi. Bajarylga mashqlar davomida bola burilishni tushundi lekin ularni mustaqil va avtomatik shaklda bajarmadi. Yuz ifodasi mezonida ijobiy dinamika kuzatildi. Dastlab past daraja 35% ni tashkil etgan bo'lsa, eksperimentdan keyin 30% ga kamaydi. Shu bilan birga, o'rta daraja 55% saqlanib qoldi, yuqori daraja esa 10% dan 15% ga oshdi. Emotion cards (vizual hissiyot kartalari) va oynada mashq qilish usullari yordamida emotsional ifoda vositalarining rivojlanayotganligi namoyon bo'ldi. Bolalar hissiyotlarni tanii boshladi lekin hali ifodalay olmadilar.

Reaksiya vaqti mezonida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. TA bosqichda past daraja 70% ni tashkil etgan bo'lsa, TK bosqichda bu ko'rsatkich 65% ga kamaydi. o'rta daraja 25% dan 25% darajada saqlandi, yuqori daraja esa 5% dan 10% ga oshdi. Prompting-fading usuli yordamida bolalarning murojaatga javob berish tezligi biroz yaxshilandi. PRT elementlari yordamida bolalar sekin bo'lsa ham rekasiya ko'rsatmoqda, reaksiya vaqtida kechikish kamaydi.

Daraja	Tajribadan avvalgi	Tajribadan keyingi
	ball	ball
Past daraja	16 nafar	11 nafar
	80 %	55 %
O'rta daraja	4 nafar	7 nafar
	20 %	35 %
Yuqori darja	0	2
	0	10%



Kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini eksperimental ta'limgacha va eksperimental ta'limdan keyingi tekshirish natijalari

Muhokama. Eksperimental ta'limgacha va eksperimental ta'limdan keyingi tekshirish bosqichlari bo'yicha olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalarning kommunikativ ko'nikmalari rivojlanish darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Dastlabki (TA) bosqichda ishtirokchilarning asosiy qismi past darajada ekanligi aniqlandi. Jumladan, 16 nafar bola (80%) past darajani tashkil etdi. O'rta darajadagi bolalar soni 4 nafarni (20%) tashkil etib, yuqori darajadagi ko'rsatkichlar umuman kuzatilmadi (0%).

Tajriba yakuniy (TK) bosqich natijalari esa ijobiy dinamikani namoyon etdi. Past darajadagi bolalar soni 11 nafarga (55%) kamaydi. Bu esa 25% ga qisqarishni ko'rsatadi. O'rta darajadagi bolalar soni 7 nafarga (35%) yetib, 15% ga oshgan. Eng muhim natija sifatida yuqori daraja paydo bo'lib, 2 nafar bola (10%) ushbu kategoriyaga o'tgan.

Mazkur o'zgarishlar tajriba davomida qo'llanilgan metodik yondashuvlar va maxsus ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi samarali bo'lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, past darajadan o'rta va yuqori darajaga o'tish holatlari bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni to'g'ri tashkil etilganligini ko'rsatadi.

Olingan natijalarga asoslanib, tajriba dasturi autizm spektr buzilishiga ega bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Natijalarda past darajaning kamayishi va o'rta hamda yuqori darajaning ortishi kuzatildi, bu esa tadqiqotning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa. Kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlar (ABA, TEACCH, PECS, PRT, Floortime, sensor va boshqa metodlar integratsiyasi) autizm spektri buzilishiga ega bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Xususan, murojaat qilish, rad etish, rozilik bildirish va fikr ifodalash ko'rsatkichlarida ijobiy dinamik o'zgarishlar kuzatildi. Verbal va noverbal ko'nikmalar (mazmun, aniqlik, mantiqiy ketma-ketlik)ni rivojlantirishda vizual-strukturaviy yondashuvlar (TEACCH, vizual jadval va ketma-ketlik kartalari) muhim rol o'ynadi. Tajriba natijalarida past darajadagi ko'rsatkichlarning kamayishi va o'rta hamda yuqori darajalarning ortishi bolalarda nutqning tizimliliigi va tushunarliliigi oshganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, leksik rivojlanish nisbatan sust bo'lib, bu faol lug'atni kengaytirishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi. Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan ish olib borishda ularning psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish ularni individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda topshiriqlar berishni taqozo etadi. Shu bilan bog'liq ravishda pedagoglar autizimli bolalarni o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan usul va texnikalarning alternativ variantlaridan vaziyatga mos tarzda foydalanish ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratadi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o'tkazilgan korreksion-pedagogik dastur autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ, nutqiy, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali ekanligi tajriba-sinov natijalari orqali isbotlandi va uni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hobson R.P. Autism and the development of mind. Hove/Hillsdale: Laurence Erlbaum Association, 1993a.
2. Menyuk P., Quill K. Semantic problems in autistic children. Communication problems in autism (pp. 127 - 145). New York: Plenum, 1985.
3. Баенская Е.Р. О коррекционной помощи аутичному ребенку раннего возраста. //Дефектология. - 1999. -№1. - С. 47 - 54.
4. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования: Мышление и речь. - М.: АПН РСФСР, 1956. - 519 с.
5. Никольская О.С. Особенности психического развития и психологической коррекции детей с ранним детским аутизмом: Автореф. дис. канд. психол. наук. -М., 1985.-22 с.
6. Эльконин Д. Б. Психологические вопросы игры и обучения в дошкольном возрасте. — М.: Педагогика, 1957.

